“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimga ega shaxslarni jalb etish masalalari

Sindor Toshquvvatov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Katta o‘qituvchi
e-mail: sindartoshquvvat@mail.ru

Аннотация. Maqolada ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimga ega shaxslarni jalb etishning nazariy va protsessual masalalari tahlil qilingan. “Maxsus bilimlar” tushunchasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning yondashuvlari qiyosiy o‘rganilib, uning mazmunini belgilashda bilim, ko‘nikma va amaliy tajribaning o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Mutaxassis va ekspertning protsessual maqomi, vazifalari hamda maxsus bilimlardan foydalanish shakllari yoritilgan. Ekstremistik mazmundagi materiallarni tahlil qilish, raqamli dalillarni aniqlash, qayd etish, olish va saqlashda sohaviy mutaxassislar ishtirokining ahamiyati ochib berilgan. Mutaxassislarni tanlashda ularning kasbiy kompetensiyalari, protsessual talablarni bilishi va raqamli axborot bilan ishlash tajribasini hisobga olishga doir takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. ekstremizm, maxsus bilimlar, mutaxassis, ekspert, kompetensiya, sud-lingvistik ekspertiza, psixologik-lingvistik ekspertiza, dinshunoslik ekspertizasi, kompyuter-texnik ekspertiza.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические и процессуальные вопросы привлечения лиц, обладающих специальными знаниями, при расследовании преступлений, связанных с экстремизмом. На основе сравнительного изучения подходов отечественных и зарубежных ученых к понятию “специальные знания” обоснована взаимосвязь знаний, навыков и практического опыта при определении его содержания. Освещены процессуальный статус, задачи специалиста и эксперта, а также формы использования специальных знаний. Раскрыта значимость участия отраслевых специалистов в анализе материалов экстремистского характера, а также в обнаружении, фиксации, изъятии и сохранении цифровых доказательств. Выдвинуты предложения по учету профессиональных компетенций, знания процессуальных требований и опыта работы с цифровой информацией при подборе специалистов.

Ключевые слова. экстремизм, специальные знания, специалист, эксперт, компетенция, судебно-лингвистическая экспертиза, психолого-лингвистическая экспертиза, религиоведческая экспертиза, компьютерно-техническая экспертиза.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. The article analyzes theoretical and procedural issues regarding the involvement of individuals with specialized knowledge in the investigation of extremism-related crimes. Based on a comparative study of local and foreign scholars' approaches to the concept of “specialized knowledge” the article substantiates the interconnectedness of knowledge, skills, and practical experience in defining its content. The procedural status, duties of specialists and experts, as well as the forms of using specialized knowledge are highlighted. The significance of involving field specialists in analyzing extremist materials, as well as in detecting, recording, retrieving, and preserving digital evidence is revealed. Proposals are put forward regarding the consideration of professional competencies, knowledge of procedural requirements, and experience in handling digital information when selecting specialists.

Keywords. extremism, specialized knowledge, specialist, expert, competence, forensic linguistic expertise, psycho-linguistic expertise, religious studies expertise, computer forensic expertise.

Bugun ekstremizm butun dunyoda milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaruvchi jiddiy va xavfli hodisa hisoblanadi. Xalqaro maydonda geosiyosiy landshaft oʻzgarib borayotgan bir sharoitda ekstremistik tashkilotlar ham oʻzlarining ekstremistik faoliyatini kengaytirish, oʻz safiga yangi aʼzolarni jalb etish va oʻzlarining buzgʻunchi gʻoyalarini amalga oshirish maqsadida zamonaviy texnika vositalaridan keng foydalanib kelishmoqda.

Jumladan, ekstremistik tashkilotlar fuqarolarning ongi va dunyoqarashiga maqsadli hamda samarali ruhiy taʼsir koʻrsatish uchun ekstremistik va aqidaparastlik mazmunidagi kontent, bosma va elektron materiallarni tayyorlash, tahrirlash va tarqatish sohasidagi maxsus bilim hamda koʻnikmalarga ega boʻlgan shaxslarni jalb etmoqda.

Shuni ham taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonda internetdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta aholi ulushi **2021-yilda 76,6 foizni** tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich **2026-yilning dastlabki 8 oyida 97,3 foizgacha** oshgan.[1:2]

Oʻz navbatida, ekstremistik materiallarni tayyorlash va tarqatishda kompyuterlar, smartfonlar, axborot tashuvchi qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda messenjerlardan keng foydalanilishi raqamli dalillarni aniqlash, qayd etish, olib qoʻyish, saqlash va tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur vazifalarni hal etish tegishli sohalarda maxsus bilimga ega shaxslarni tergov jarayoniga jalb etishni taqozo qiladi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, “maxsus bilimlar” tushunchasi uzoq yillar davomida ilmiy tadqiq etilgan boʻlsa-da, uning mazmuni va talqiniga oid yagona yondashuv shakllanmagan. Texnologik taraqqiyot va qonunchilikdagi, xususan, protsessual normalardagi oʻzgarishlar mazkur tushunchani ilmiy jihatdan aniqlashtirish zaruratini kuchaytirib, uning munozarali xususiyatini saqlab qolmoqda.

A.A. Eysman “maxsus bilimlar — bu hammaga maʼlum boʻlmagan va hamma foydalana olmaydigan bilimlar boʻlib, ularga cheklangan doiradagi mutaxassislar ega boʻladi”,-deb taʼrif bergan.[2:2] Ushbu fikrlarga qisman qoʻshilgan holda, taʼrifda quyidagi kamchiliklar mavjud hisoblaymiz: Birinchidan, *“hammaga maʼlum boʻlmagan”* va *“hamma foydalana*

olmaydigan bilimlar” tushunchalari mavhum va juda keng tushunchalardir. Ikkinchidan, ta'rifda cheklangan doiradagi mutaxassislar deganda kimlar nazarda tutilayotgan ochib berilmagan.

Keyinchalik, G.M. Nadgorniy ham “maxsus bilimlar”ga shunga o‘xshash, ya'ni: “Bu hammaga ma'lum bo‘lmagan va ilmiy, muhandislik-texnik va ishlab chiqarish mutaxassisliklarida kasbiy tayyorgarlikning asosini tashkil etuvchi, shuningdek, faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan bilimlardir. Maxsus bilimlardan dalillarni aniqlash, mustahkamlash, olib qo‘yish, baholash va tadqiq etish uchun foydalaniladi” deb ta'rif bergan.[3:2] Fikrimizcha, ushbu ta'rifda *“maxsus bilim”* tushunchasining mohiyati toraygan. Chunki, jinoyatlarni tergov qilishda fizika, kimyo, tibbiyot, siyosat, dinshunoslik, psixologiya sohalaridagi maxsus bilimlardan ham foydalaniladi. Ayniqsa, ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish kesimida ushbu kamchilik yaqqol ko‘rinadi.

T.V. Averyanova va Ye.R. Rossinskaya ham maxsus bilimlar – bu maxsus tayyorgarlik yoki kasbiy tajriba orqali orttiriladigan hamda sud ishlarini yuritish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan muayyan fan yoki texnika, san'at va hunarmandchilik sohasidagi nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar tizimidir, deb hisoblaydilar.[4:3] Ushbu olimlar tomonidan berilgan ta'rif avvalgi olimlar keltirgan tushunchalariga nisbatan ancha mukammalroq. Chunki, unda maxsus bilimlarning manbai, mazmuni, sohasi va qo‘llanilish maqsadi bir vaqtning o‘zida ko‘rsatilgan.

O‘zbek olimlarimizdan professor I.R.Astanov esa, “maxsus bilim – bu jinoyat ishini qo‘zg‘atish, dastlabki tergov va sud muhokamasi maqsadlari uchun qo‘llaniladigan va jinoyatga aloqador faktik ma'lumotlar, dalillarni zamonaviy tadqiqot usullari orqali topish, to‘plash, baholashni amalga oshirishda foydalaniladigan fan, texnika, kasb-hunar sohasidagi tor yo‘nalishdagi professional bilimdir”,-deb ta'rif bergan.[5:3] Biroq, maxsus bilim turlariga san'at sohasidagi ko‘nikma va malakalarni kiritmagan.

Tadqiqotchi G‘.Sh.Nabiyev esa, “maxsus bilimlar – bu huquqni qo‘llash faoliyatida dalillarni topish, baholash va tahlil qilish uchun maxsus tayyorgarlik, kasbiy malaka yoxud amaliy tajriba orqali o‘zlashtiriladigan hamda fan, texnika, san'at hunar va boshqa sohalaridagi nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuidir”,-deb nazariy ta'riflaydi.[6:3] Fikrimizcha, ushbu ta'rifda qo‘llanilgan “huquqni qo‘llash faoliyatida” iborasi haddan tashqari keng bo‘lib, turli huquq sohalarini ham qamrab oladi.

Tahlillilar shuni ko‘rsatadiki, “maxsus bilim” tushunchasi va uning mohiyati bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona yondashuv mavjud emas. Xususan, ba'zi olimlar “maxsus bilim” tushunchasini tor, boshqalari esa, keng ma'noda talqin qilib, o‘zlarining ilmiy-nazariy qarashlarini ilgari surganlar.

Fikrimizcha, maxsus bilimlar muayyan mutaxassislik bo‘yicha o‘qish va amaliy faoliyat jarayonida orttiriladi. Ushbu tushuncha nafaqat fanning u yoki bu sohasidagi bilimlarni, balki ushbu bilimlardan foydalanish ko‘nikmalari va tajribasini ham o‘z ichiga oladi. Maxsus bilimlarga ega bo‘lish jarayonini quyidagicha formula: **bilimlar** (*oliy, o‘rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi olish orqali*) + **ko‘nikmalar** (*amaliy ta'lim yoki malaka oshirish orqali*) + **tajriba** (*bilimlarni amaliy faoliyatda muntazam tarzda qo‘llash orqali*) = maxsus bilimlarga ega bo‘lish bilan ifodalash mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Bugungi kunda mutaxassis faol ishtirokchisi boʻlib, tergovga bebaho yordam koʻrsatishga, masalan, narsalar va hujjatlarni, elektron maʼlumotlarni topish, mustahkamlash va olib qoʻyishga, guvohlantirish, eksgumatsiya tergov harakatlarini oʻtkazishga koʻmaklashishga qodir.[7:4]

Vakolatli organlarning mansabdor shaxslari jinoyatlarni ochish va tergov qilish jarayonida oʻz faoliyat sohasiga xos boʻlmagan maxsus bilim va tajribaga ega emasligi bilan bogʻliq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Aynan ushbu murakkabliklar, maxsus bilimga ega boʻlgan shaxslarning “maslahat yordami”ga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda bunday maxsus bilimga ega boʻlgan shaxslarga nisbatan talab ortib bormoqda. Baʼzida, ulardan olingan maʼlumotlar tergov qilinayotgan jinoiy ish doirasida yagona dalil boʻlishi ham mumkin.

Ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishning murakkabligi va ushbu jinoyatlar koʻpincha ijtimoiy tarmoqlar yordamida sodir etilayotganligi, gumon qilinuvchilarning har birining aybini aniqlashda oʻziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ushbu jinoyatlarni isbot qilishda din, sanʼat, tarix, kompyuter texnologiyalari sohasidagi keng bilimlar, shuningdek, filologiya va lingvistika imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinadiki, bunday maxsus bilimlar oliy oʻquv yurtlarining yurisprudensiya yoʻnalishlarida chuqur oʻqitilmaydi.

Yana shuni ham taʼkidlash kerakki, har qanday ekstremistik faoliyatning asosini muayyan ijtimoiy guruhlarga ham, butun jamiyatga ham taʼsir koʻrsatadigan mafkurani puxta tarzda ishlab chiqish, uni yuzaga keltirish, tarqatish tashkil etadi. Ekstremistik mafkuraning mavzusi nafaqat diniy, balki tarixiy faktlar, odamlarning milliy va irqiy mansubligi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin. Ayrim hollarda ekstremistik guruhlarning mafkurasi ham tarixiy, ham milliy-irqiy eʻtiqodlarni oʻzida mujassam etishi mumkin.

Bundan tashqari, ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlarning virtual olamga koʻchishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga Internet tarmogʻini monitoring qilish, mutaxassislar yordamida ekstremistik mazmundagi kontentni aniqlash, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni bunday materiallardan tozalash orqali profilaktika qilish vazifasini qoʻymoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va tergov qilish jarayonida maxsus bilimlardan foydalanish zarurligi haqidagi fikr mutlaqo toʻgʻri ekanligini koʻrsatmoqda.

Hozirgacha ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlarning qaysi sohalariga ehtiyoj tugʻilishi va ular qanday shakllarda qoʻllanilishi mumkinligi haqida ilmiy doiralarda koʻplab munozaralar mavjud.

Xususan, M.V.Peschaniy ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlarni tergov qilishda tilshunoslik, psixologiya, etnologiya va dinshunoslik sohalaridagi maxsus bilimlar kerakligi taʼkidlaydi.[8:5] Ushbu olimning fikrlariga qisman qoʻshilamiz. Chunki, ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash holatlarini isbot qilish uchun tarix sohasidagi bilimlar ham talab qilinishi mumkin.

I.R.Astanovning taʼkidlashicha, jinoyatchilarning ijtimoiy xavfli qilmishiga qarshi kurashda odatiy boʻlgan xatshunoslik, ballistik, trasologik, psixologik, tibbiy ekspertizalardan maxsus bilimlardan samarali foydalanilsa-da, insoniyat

xavfsizligi yoʻlida ularning yangi koʻrinishlari DNK, siyosiy-lingvistik, odorolik, ekologik, kompyuter texnik ekspertizalar ham jinoyatlarni fosh etishning muhim usuliga aylanib ulgurdi.[9:6]

Hozirgi kunda ekstremizm bilan bogʻliq jinoyatlar boʻyicha bir necha turdagi ekspertizalar tayinlanishi lozim boʻlmoqda.

Xususan, M.L. Podkatilina ushbu masala boʻyicha ekspertiza amaliyoti va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilib, ekstremizm bilan bogʻliq ishlar doirasida oʻtkaziladigan 21 turdagi ekspertizalarning nomini sanab oʻtgan.[10:6]

Jinoyat ishlarini tergov qilishda jalb qilinadigan maxsus bilimga ega boʻlgan shaxslarni **ikki guruhga:** mutaxassislar va ekspertlarga ajratishimiz mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 69-moddasida, tergov va sud muhokamasini oʻtkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqirilishi va mutaxassis sifatida **shifokor, pedagog** hamda **zarur bilim va malakaga ega boʻlgan boshqa shaxslar** chaqirilishi mumkinligi mustahkamlab qoʻyilgan.[11:6]

Shu bilan birga, ishni sudga qadar yuritish bosqichida mutaxassis oshkora va nooshkora tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini amalga oshirishda texnik yoki boshqa vositalar bilan bevosita yordam koʻrsatish, maslahatlar berish uchun jalb etilishi mumkin.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi JPKning ayrim moddalarida maxsus bilimlarga ega boʻlgan mutaxassislarning kasblari koʻrsatilgan:

1. Voyaga yetmagan shaxslarni soʻroq qilishda pedagog va (yoki psixolog) ishtirok etishi mumkinligi (*Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 121, 554-moddalarida nazarda tutilgan*);[12:7]

2. Zarurat tugʻilganda, ayrim tergov harakatlarini oʻtkazishda shifokor ishtirok etishi (*Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 138, 146, 149, 189, 445-moddalarida nazarda tutilgan*);[13:7]

Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida tartibga solinish darajasiga qarab, maxsus bilimlardan foydalanishni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Mutaxassis ishtirok etishi shart boʻlgan holatlar (*masalan, elektron maʼlumotlar* ***mutaxassis ishtirokida olinishi*** *(OʻzR JPKning 951, 2041-moddalari) shart, yoʻqsa olingan dalillar nomaqbul boʻlib qoladi.*); [14:7]

2. Mutaxassis ishtiroki nazarda tutilgan, lekin majburiy boʻlmagan holatlar (*guvohlantirish, pochta-telegraf joʻnatmalarini koʻzdan kechirish va olib qoʻyish tergov harakatlarida zarurat boʻlsa*);

3. Jinoyat protsessual qonunchilikda nazarda tutilmagan holatlar, bunday yordam natijalari daliliy ahamiyatga ega boʻlmaydi (*mutaxassisning maslahatlari, sud ekspertizasini tayinlashga tayyorgarlik koʻrishdagi ishtiroki*).

Tadqiqot obyektimiz boʻlgan jinoyatlarni tergov qilish jarayonida turli mutaxassislar: tilshunoslar, dinshunoslar, kinologlar va boshqalar jalb qilinishi mumkin. Biroq, amaliyot tajribasidan kelib chiqadigan boʻlsak, aksariyat hollarda koʻzdan kechirishga faqat mutaxassis-kriminalistlar jalb etiladi, xolos.

Soʻroq tergov harakatida psixologik aloqa oʻrnatish, sohaviy terminlar va muhokama qilinayotgan masalalarning mazmunini anglash bilan bogʻliq qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika sohalaridagi mutaxassislarni ishga jalb qilish maqsadga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, diniy nafrat yoki adovatning sabablarini aniqlash maqsadida teologiya, internet orqali tarqatilgan materiallarni o‘rganishda esa, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tintuv tergov harakatida shaxsning ekstremistik tashkilot faoliyatida ishtirokini yoki uning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashini tasdiqlovchi moddiy qayd etilgan axborot manbalarini izlashga qaratiladi. Bunday izlarni aniqlash va tahlil qilishda mutaxassis ekstremistik, separatistik va terrorchilik tashkilotlari ramzlarini tushunish hamda ularning topilgan atributlarini baholashga yordam beradi. Mutaxassis-kriminalist esa, tintuvning barcha holatlarini audio va video vositalar yordamida bosqichma-bosqich qayd etadi.

Mazkur jinoyatlarni tergov qilish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, yetarli malakaga ega bo‘lmagan mutaxassisning jalb qilinishi uslubiy xatolarga olib kelishi mumkin. Shu bois tergovchi mutaxassisni tanlashda uning quyidagi kasbiy kompetensiyalari va amaliy tajribasini inobatga olish taklif etiladi:

- **axborot mazmunini tahlil qilish** — ekstremistik, aqidaparastlik yoki separatistik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan matn, tasvir, audiovizual va boshqa materiallarni sohaviy bilimlar asosida tahlil qilish hamda ulardagi lingvistik, psixologik, diniy, etnologik va boshqa ahamiyatli belgilarni aniqlashga ko‘maklashish.

- **texnik-kriminalistik ko‘mak ko‘rsatish** — ko‘zdan kechirish, tintuv, olib qo‘yish kabi tergov va protsessual harakatlarda texnik vositalarni to‘g‘ri qo‘llash, raqamli izlarni aniqlash va qayd etish hamda maxsus masalalar bo‘yicha maslahat berish.

- **kasbiy-huquqiy kompetensiya** — maxsus bilimlari chegarasi, protsessual maqomi va vakolatlarini bilish, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash hamda protsessual talablarga rioya etish.

- **raqamli axborot bilan ishlash** — kompyuterlar, mobil qurilmalar, axborot tashuvchilar, internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlardagi kriminalistik ahamiyatli ma'lumotlarni, jumladan, ekstremistik, aqidaparastlik va separatistik mazmundagi yozishmalar, audio va videofayllarni aniqlash, qayd etish, ajratib olish, nusxalash va saqlash.

- **raqamli dalillar bilan ishlash** — elektron ma'lumotlarni olishda ularning o‘zgarishi, yo‘qolishi yoki buzilishining oldini olish, aslligi va yaxlitligini tekshirish hamda ular bilan bajarilgan harakatlarni hujjatlashtirish.

Umuman olganda, ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni samarali tergov qilish ko‘p jihatdan sud ekspertizalarini o‘tkazish uchun yetarli maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarning faol jalb etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Ekspertlarning xulosalaridan foydalanish esa, ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan tekshirish hamda tergovni har tomonlama, to‘la va xolisona bo‘lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekistonda 10 yoshdan katta aholining 97 foizi internetdan foydalanadi. // https://kun.uz/news/2026/09/14/ozbekistonda-10-yoshdan-katta-aholining-97-foizi-internetdan-foydalanadi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Эйсман А.А. Заключение эксперта. Структура и научные обоснования. М.: Юрид. лит. 1967. 152 с.

Надгорный Г.М. Соотношение специальных и юридических знаний / Г.М. Надгорный // Криминалистика и судебная экспертиза. Вып. 28. — К., 1984. — С. 14-19.

Энциклопедия судебной экспертизы / под ред. Аверьяновой Т.В., Росинской Е.Р. — М.: Юрист, 1999. — 552 с.

И.Р. Астанов Жиноят ишлари бўйича махсус билимлардан фойдаланишнинг процессуал ва криминалистик жиҳатлари: / 12.00.09 –Жиноят процесси. Криминалистика, тезкор-қидирув ҳуқуқ ва суд экспертизаси мутахассислиги бўйича юрид. фан. д-ри (DSc) дис. автореф. –Т., 2018. –14 б.

Ғ.Ш. Набиев “Экспертнинг жиноят-процессуал фаолиятини такомиллаштириш масалалари” номли юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши автореферати. Т.: 2025 й. –20 б.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. 01.04.1995 // https://lex.uz/docs/111460.

Песчаный М.В. Проблемы использования специальных знаний при расследовании преступлений экстремистской направленности // Закон и право. М., 2009. № 6. С. 87-89.

И.Р. Астанов. Жиноят ишлари бўйича махсус билимлардан фойдаланишнинг процессуал ва криминалистик жиҳатлари. Докоторлик диссертацияси. 2020 йил. 32-бет.

Подкатилина М.Л. Судебная лингвистическая экспертиза экстремистских материалов: теоретические и методические аспекты. Автореф. ... канд. юрид. наук. Москва., 2011. № 12. С. 20. // https://rusexpert.ru/public/avtoreferaty-pdf/Podkatilina2013.pdf

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. 01.04.1995 // https://lex.uz/docs/111460#253821

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. 01.04.1995 // https://lex.uz/docs/111460

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. 01.04.1995 // https://lex.uz/docs/111460

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. 01.04.1995 // https://lex.uz/docs/111460.